



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
“5110900-Pedagogika- psixologiya” ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Mamajonova Mahliyoning
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan
“Professional pedagogik faoliyatning psixologik asoslari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi G.Tojiboyeva

Andijon 2016

M U N D A R I J A

Kirish.

I Bob. Professional pedagogik faoliyatining ilmiy - nazariy asoslari

1.1. Davlat ta’lim standartida boshlang’ich ta’limning mazmuni va o’qituvchiga qo’yilgan talablar.....	5
1.2. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy pedagogik faoliyati va professiogramasi	
tavsifi.....	22

II Bob. Pedagogik faoliyatning mazmun mohiyati, shakl-usullari.

2.1. O’qituvchi faoliyatining axloqiy psixologik xarakteri.....	32
2.2. Pedagogik faoliyatning texnologiyalashuvida psixologik yondashuv.....	45

III Bob. Ta’limning zamonaviy texnologiyalari.

3.1. Modulli o’qitish texnologiyasi va innovatsion texnologiyalar.....	54
--	----

3.2. Aqliy salohiyatni aniqlash metodikasi.....	60
---	----

Psixologik tavsiya.....	66
--------------------------------	-----------

Xulosa.....	
--------------------	--

... 70

Foydalanilgan adabiyotlar.....	74
---------------------------------------	-----------

KIRISH.

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan, jamiyat qurilish sohasidagi ishlarining samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma’naviyatli rivojlangan mamlakatlar darajasida, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog’liq. Prezidentimiz I. A .Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilib, Oliy majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risidagi qonun”, Davlat ta’lim standarti va Vazirlar Mahkamasining umumiyligi o’rta ta’lim, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish haqidagi qarorlari ana shu maqsadni ro’yobga chiqarishga qaratilgan .

Prezidentimiz I.A.Karimov alonida ta’kidlaganlaridek biz “Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo’lib yetishga farzandlarimizning hayotda nechog’li faol munosabatlarda bo’lishga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishga bog’liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak”. Shu sababli ham birinchi navbatda ta’lim mazmunini va uning tarkibini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, xususan bu mazmunga nafaqat bilim, ko’nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak atrofga munosabatlarini ham kiritish mumkin.

Mavzuning dolzarbliji: Ta’lim mazmuni, kadrlar tayyorlashni yaxshilash vazifalarini, jumladan boshlang’ich sinf o’qituvchisining ma’naviy -axloqiy fazilatlarini shkllantirish, bu borada M.Ochilovning “O’qituvchi odobi”, “Muallim qalb

me'mori", Munavvarovning "Pedagogika" kabi bir qancha asarlaridan foydalangan holda zamonaviy, raqobatbardosh, ma'naviy ahloqiy yetuk kadrlar tayyorlash lozim.

Demak bo'lajak pedagoglarga o'qituvchi odobiga doir bilim va malakalar berish zarurati pedagogik jarayonning ehtiyojlaridan ob'ektiv ravishda kelib chiqadi. Ana shu nuqtai – nazarda biz tanlagan bitiruv ishi mohiyati jihatidan dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar bilan, pedagogik axloqning qonuniyatlari va tarixiy ildizlari, o'qituvchining axloqiy fazilatlari va pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri, muomila odobining o'ziga xos xususiyatlari, tamoillari, qoidalari, talablari mezonlari bilan qurollantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ob`yekti. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar bilan, pedagogik axloqning qonuniyatlari va tarixiy ildizlari, o'qituvchining axloqiy fazilatlari.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Professional pedagogik faoliyatning ilmiy asoslarini mazmuni, shakl-usullari, vositalari yo'llari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Davlat ta'lim standartida boshlang'ich ta'limning mazmuniga qo'yilgan talablarni aniqlash.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining professional - pedagogik ma'naviy – axloqiy fazifalarini o'rganish va tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari. Nazariy taxlil, kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment. Malakaviy bitiruv ishini yozishda pedagogik, psixologik, sosiologik manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, ilmiy tajribalarni uyushtirish, o'qituvchilar, o'quvchilar, talabalar bilan suhbat, savol-javob metodlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining metodolik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'limgo`g`risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek mavzuga oid ilmiy pedagogik metodik manbalar, o`quv metodik majmualar.

M.Ochilov va N.Ochilovalarning "O'qituvchi odobi", "Muallim qalb me'mori" asarlaridagi ta'limgo`g`risida tarbiyaga oid nazariyalar, pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti, O'zbekiston Respublikasining ta'limgo`g`risida hujjatlarida va qonunlarida ilgari surilgan g'oyalari: ijtimoiy - pedagogik hodisalar ilmiy bilish haqidagi falsafiy kategoriylar bitiruv ishimizning metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.

1. Professional pedagogik faoliyatining ilmiy - nazariy asoslari muammosi nazariy amaliy jihatdan asoslandi
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy pedagogik faoliyati va professiogramasi tavsifiga oid manbalar va tajribalar o`rganildi, umumlashtirildi

3. Pedagogik faoliyatning mazmun mohiyati, shakl-usullari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy pedagogik faoliyatiga qaratilgan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqotni olib boorish natijasida professional pedagogik faolliyatining ilmiy - nazariy asoslariga yo`naltirilgan nazariy yondashuvlar, pedagogik g`oyalar, tarixiy tajribalar, ulardan foydalanish imkoniyatatlari o`rganildi va boyitildi. Bu metodikadan boshlang`ich sinf o`qituvchilari, talabalar va o`qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat

I BOB. Professional pedagogik faoliyatining ilmiy - nazariy asoslari

1.1. Davlat ta’lim standartida boshlang’ich ta’limning mazmuniga qo’yilgan talablar

Boshlang’ich ta’limning davlat ta’lim standarti umumiy o’rta ta’limning tarkibiy qismi bilan bo’lgan boshlang’ish ta’limning tarkibiy tuzilishi, mazmuni, o’quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o’quv yuklamasi hajmida qo’yiladigan meyor va talabalar majmui bo’lib, u davlatning me’yoriy hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Boshlang’ich ta’lim davlat talim standarti O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to’qqizinchi - sessiyasida qabul qilingan “Talim to’g’risida”gi qonunga va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga hamda vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz talim standartlarini ishlab chiqarish va joriy etish to’risida”gi 1998 yil 5-yanvar qaroriga va Davlat ta’lim standarti to’g’risidagi “Nizom”ga asoslangan holda belgilangan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat ta’lim standarti to’g’risidagi Nizom”ga binoan umumiy o’rta ta’limga, shu jumladan, boshlang’ich ta’lim bosqichi uchun ham alohida -alohida davlat ta’lim standarti talablari va meyoriy ko’rsatgichlari belgilab qo’yilgan. “O’zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizom”da ta’kidlaganidek “Boshlang’ich ta’lim o’qish, yozish, sanash, o’quv faoliyatining asosiy malaka va ko’nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o’zini –o’zi nazorat qilish o’quvi, nutq va xulq – atvor, madaniyat, shaxsiy gigiena va sog’lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta’kidlashga da’vat etilgan. Shu asosga ko’ra,

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning nutqiy tafakkur qila olish salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, milliy urf odatlarini o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan minimal ko'rsatgichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatgichlarga erishish uchun zarur bo'lган ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi. Bo'lang'ich ta'limga davlat standart o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari belgilanadi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilanadi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatgichlar 7,(6)-II yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqoza qilgan ta'lim mazmunining minimal miqdoriga belgilandi. Bo'shlang'ich ta'limga davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mazmuni sohalarini integrasiyalash imkonini beradi. Davlat ta'lim standartini belgilash bo'shlang'ich ta'limning mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizasiyalash (davr talablari nuqtai nazaridan yangilash)ni ko'zda tutadi.

Davlat talim standartini boshlang'ich ta'lim jarayonini oldiga qo'yilgan iltimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari

taqozo qilinadigan ko'nikma va malakalarni baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda ayni shu boshlang'ch sinf o'quvchilardan ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan talim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi. Boshlang'ich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasining tarkibiy qisimlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik texnologik tizmi va darajasini belgilash xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichiga davlat vajamiyat tomonidan qo'yiladigan talabga ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muofiqlik va mutanosiblik to'la ta'minlangan bo'lmg'i lozim. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayoning tarkibini va xuddi shu tarkibiy komponentlarning mazmunini modernizasiyalash, boshlang'ich ta'lim berish jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun asos yarata oladi:

- boshlang'ich ta'lim jarayoniga kiritilgan har bir ta'lim sohasi bo'yicha belgilanadigan ta'lim mazmuniga mos tarzda o'quv materiallarini tadrijiy tarzda berilishini ta'minlash;
- ta'lim jarayonini ta'lim sohalarining maqsadiga bo'yso'ndirish va ta'lim sohalari aro maqsadlar mutanosibligini ta'minlash;
- har bir ta'lim sohasi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarda hosil bo'ladigan ko'nikma va malakalarning aniq darajalarini hamda ta'lim natijalarini baholash mazmuniga qo'yiladigan talablarni

boshlang'ich ta'lism standartining asosiy parametrlari bo'yicha ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'lism standarti ta'lism sonalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarining mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta'lism sohalariga belgilab qo'yilgan ta'lism standartining ko'rsatgichlari tashkil etadi. Ta'lism sohalari bo'yicha ta'lism natijasining sifati xuddi mana shu ko'rsatgichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o'rinda belgilab qo'yigan ko'rsatgichlar umumlashtiriladi hamda aniq o'lchov birliklarida ifodalanadi.

Davrning dolzARB talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lism tamoyillariga asoslanib jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lism tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'lism sohalari kiritiladi.

1.1.Ona tili ta'lism sohasi.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini agnlash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamoat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olishda, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lism bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lism sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar qo'yidagi uch paramerli standart o'lchovi orqali aks ettiriladi; o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini vamatn mazmunini anglash hamda fikrini yozma shakl hamda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bolaning sovodxonlik, yozma nutq belgilarini talaffuzda almashtirish ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodalash o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatgich sifatida ifodalash o'qish tezligi, ya'ni minutiga berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatgichi olingan.

Matn mazmunini anglash, o'zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasi bolaning og'zaki bayon qilayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olisn darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrlashning ko'rsatkichlari o'quvchi uch minutda qancha sahifa matnni o'qish o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'loring maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametrda ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan qo'yidagi ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- fikrlash mavzusining murakkablik darajasi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy sayodxonlik (yozma) savodxonlik.

1.2. Matematika ta'lim sohasi.

Boshlang'ich matabda matematika ta'lifi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga egallagan bilimlarni ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Matematika ta'lim sohasi bo'yicha standart ko'rsatgichlar bolalarda natural sonlar va nol to'g'risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish amaliy malakalarini yechishda natural sonlarni va arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish eng sodda geometrik shakllar, ularning tekislikda tasvirlanish xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai - nazaridan belgilanadi.

1.3. Tabiat ta'lim sohasi.

Bolalarni tevarak – atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish tabiat ta'lim sohasi orqali amalgalash oshiriladi.

Tabiat ta'lim sohasi bo'yicha standart ko'rsatgichlar bolaning tabiat va undagi hodisalar haqidagi tasavvurga ega bo'lish ularni farqlay olish, qisqacha tavsiflab berish hamda amalda qo'llay olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

1.4. Inson va jamiyat talim sohasi .

Inson va jamiyat talim sohasi bola shaxsining jismoniy va ma'naviy komolotini taminlashga xizmat qiladigan integral ta'lim sohasiasosida talim tarbiya berish jarayonida bolaning jismonan chiniqtirishni taminlashga xizmat qiladigan eng muhim odatlar urf –odatlar, kiyinish me'yorlari, nafosat va go'zallikni his eta olish, milliy ruhni, inson his tuyg'ularini his eta olish, ko'nikma, olamni borliqni, insoniyat dunyosini va inson faoliyatini ranglar yordamida tasavvur eta olish, milliy ruhni inson his – tuyg'ularini turli musiqi y sadolar yordamida anglash ko'nikmasi, shuningdek, oila va uning iqtisodiy asoslari haqidagi dastlabki ko'nikmalar shakilantiradi va rivojlantiriladi.

Boshlang'ich talim bosqichi uchun belgilangan standart ko'rsatkichlari quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1. Ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatgichlar.
2. O'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar.

Davlat tomonidan belgilab berilgan, o'quvchilar taminlanishiga zarur deb topilgan ko'rsatgichlar “Talim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatgichlar” bo'limida ifodalanadi. Bu bo'limda har bir ta'lim sohasi bo'yicha belgilangan ko'rsatgichlar maktabining boshlang'ich sinflarda eng zarur ko'nikmava malakalarni hosil qilish uchun beriladigan bilimni majmuini ya'ni boshlang'ich mazmunining negizini ifodalaydi. Tegishli o'quv primetrlari bo'yicha dastur, darslik va boshqa o'quv metodi materiallarini tayyorlashda ana shu bo'limda ifodalangan ko'rsatgichlar negiz qilib olinadi.

“O’quchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yilgan minimal talabalar” bo’limida o’quvchilarning boshlang’ich siniflarda egallashi shart bo’lgan minimal (eng quyi) ko’rsatgichlar ifodalangan. Boshlang’ich ta’lim bosqichi yakunida har bir o’quvchidan ana shu bo’limda belgilab berilganko’rsatgichlarga erishish davlat tomonidan talab qilinadi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining professional pedagogik faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rtaqa qo'yilayotgan vazifalarini bajarish ko'p jihatlarda o'qituvchilarga bog'liq. Bozor siyosatga o'tish sharoitida ta'lim - tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish, o'quvchilarni xilma - xil fao liyatini uyushtirish ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ish bilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi O'zbekistonning istiqboli, ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligigacha, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq talimini taraqqiy ettirishga, maktablar, o'quvchilar va talabalarning moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor bermoqda.

O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zagina yetarli emas. Chunki pedagogik naziriyyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiylar qonun - qoidalar, tamoillar, umumlashtirilgan, metodik g'oyalar bayon etiladi, o'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma- xil murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni puxta amaliy, tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi.

O'qituvchilik kasbini tanlash. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak.

Pedagogik kasbni tanlagan kishi avvalo so'g'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olish, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borliq xushmuomalalik, kuzatuvchanlik o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqlilik darajasini ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyat - yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim – tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" , - deyiladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda o'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash , unda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirish vazifasi eng oliy janob yuksak va shu bilan birga murakkab vazifadir. Har bir bola o'z xulq - atvoriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalilanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini belgilashlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosning bu xususiyatlarini uning kasbnama (prafessogramma)sida ifodalanadi.

Kasbnama qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi shaxsining xususiyatlari: o'qituvchining psixologo – pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- mafkuraviy sohada - ilmiy dunyoqarash va e'tiqod sosial va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;

- kasbiy pedagogik sohada - bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; psixalo - pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, talabchanlik, qat'iylik vamaqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish;

- bilim sohasidakeng ilmiy saviya ma'naviy ehtiyoj va qiziqarli, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

O'qituvchining psixalo - pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar: Bilim egallah sohasida pedagogikaning metodologik asoslarni, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish; tarbiyaning, maqsadi, vazifalari shakl va metodlarini tushunish, bolalar va o'smirlar anatomofiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish, o'quvchilar gigienik tarbiyasining nazariy, tabiiy – ilmiy asoslari va vositalarini bilish, bolalar

rivojlanishining psixik qonuniyatlarini har xil yoshda shaxsnинг individual psixologik xususiyatlarini bilish.

Ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasida.

Pedagogik vaziyatni tahlilqilish; pedagogik ta'sirlarni rejalashtish va natijalarni mo'ljallay olish ijtimoiy pedagogik hodisalarning amaldagi holatini ularning paydo bo'lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoit va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish o'quvchilarining tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatolarni ko'ra bilish aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish o'quvchilarining sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish o'quv tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlab olish rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o'quvchilarining javob harakatlarini oldindan chamlab bilish ko'nikmalari.

O'quv tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida o'quvchilarining tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda maqsadiga muvofiq o'quv materallarini tanlash uni analiz va sintez qila olish ko'mikmasi: ilmiy materialni qayta ishlab o'quv materialiga aylantira olish ko'nikmasi ma'lum didaktik vazifaga muofiq o'quvchilar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o'quv materialni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasi.

Bolalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida: tarbiyaviy maqsadga muofiq ayrim o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, qo'yilgan maqsad asosida ularning tushunchasni o'zgartira olish ko'nikmasi: bolalarga ta'sir o'tkazish va ular faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishni rejalashtirishni ko'nikmasi : o'quvchilar xulqi va faolligini boshqarish ko'nikmasi: bolaning tashqi ko'rinishi va qiliqlaridan ruhiy holatidagi o'zgarishlarini aniqlash, ma'lum vaziyatda bolalar xulqining xususyatlarini anglash va izohlash ko'nikmasi; o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'rniga qo'ya olish va pedagogik ta'sirning ancha kuchli vositalarini tez topa olish ko'nikmasi; to'g'ri talablar qo'ya bilish, pedagogik vazni va har bir o'quvchining xususyatlariga qarab ularni o'zgartira olish ko'nikmasi tarbiyalanuvchilarni o'ziga qarata olish ko'nikmasi ayrim bolalar o'quvchilar jamoasi va kichik guruhlar shuningdek ota-onalar va o'qituvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnata olish ko'nikmasi har xil odamlar bilan turli sharoritda aloqa qilish umumiyligi til topa bilish ko'nikmasi ijobjiy yoki salbiy ijtimoiy -psixologik hodisalarning jamoadagi munosabatlarning xarakterini ocha bilish ko'nikmasi.

Pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi tashqi ta'sirlarga moslanishi yoki ulardan saqlanish sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o'zgartira olish malakasi o'quvchilarning jamoadagi o'zaro munosabatlariga muofiq ravishda ularni to'g'ri yo'lga sola bilish paydo bo'lib

turgan nizolarni yo'qota bilish o'quchilar orasida do'stlik va o'rtoqlikni rivojlantira olish ko'nikmasi ko'rsatilgan yo'l - yo'riqlarni amalga oshirish o'quvchilarning ishi ustida joriy nazorat qilish faoliyatning xarakter va yo'naliшини almashtirib turish ko'nikmasi.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi: ixtisosga doir bilimlarni bilish ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlarini bilish fanning nazariy va amaliy ahamiyatini hozirgi darajasi qonunyatlari tarixi va rivojlanishning keyingi asosiy yo'nalişlarini bilish maktab kursi fan asoslarining muqaddimasi ekanlgini tushunish ayrim fan sohasidagi bilimlarni chuqurlashrirish mustaqil ilmiy tadqiqotlar ishidan dastlabki malakalar hosil qilish bilimlarni mustaqil to'ldirish uchun bibliografik ma'lumotnomalar ko'rsatmalar profekt telematik katologlaridan foydalanish.

Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni maktablar rivojlanishining hozirgi bosqichida fanlarni o'qitishning maqsadi va vazifalari bilish davlat ta'lim standarti amaldagi maktab dasturi darsliklari va asosiy o'quv qo'llanmalari har tomonlama puxta bilish o'quvchilarda fanga qiziqishni uyg'otish va rivojlantira bilish mutaxasislik bo'yicha hamma o'quv tarbiyaviy ishlarni hozirgi zamon didaktikasi psixolog -pedagogik tizimli texnalogik yondashuvlar va texnikalar darajasida tashkil qila bilish oddiy ko'rgazmali qurollar tayyorlay bilish, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash, maktabda olib borishga tayyorgarlik predmet

bo'yicha sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilish va boshqalar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchilik ishida muvaffaqiyotga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallah zarur. Pedagogik mahorat egallah kuch sarf qilib katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatni iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lish mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatni rivojlanishi uchun esa iste'dod, layoqat, zehn ya'ni inson asab sistemasida anatoma fiziologik xususiyat ham bo'lishi mumkin. Ana shu tabiat zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning qo'yidagi turlari mavjud bo'lmg'i va tarbiyalanmog'i lozim.

1. Bilim qobiliyati - fanning tegishli sohalarga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot)ga oid qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarni ham bajara oladi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, material yoki muammoni aniq va tushunarli qilib gapirib berish, o'quvchilarni mustaqil ravishda

fikrlashga o'rgatish, zarur holda o'quv materialini o'zgartira olish, soddalashtira olish, keyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkazish kabilar.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik va boshqalar. Bunday qobiliyatni o'quvchilar kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'limgan tashqi belgilar asosida o'quvchilarning ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq madaniyati yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr hamda histuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratigan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki ma'qullanayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha ta'sirchanligi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini yuksak darajada faollashtirishga qaratiladi: o'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchilarning diqqatini kuchaytiradi hamda fikrni faollshtiradi. ("mana bu yerga alohida e'tibor bering", "o'ylab ko'ring" kabi). Shuningdek, o'rinali qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqini juda jonlantirib yuboradi va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali bo'lib unda stilistik, gramatik fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq zerikmaydigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'qituvchilar tez gapishtirishga, boshqalari sekin gapishtirishga moyil bo'ladilar. Biroq o'quvchilar o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim.

5. Tashkilotchilik qobilyati birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirishni, jipslashtirishni muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni; ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish ko'zda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda ishni vaqtiga qarab to'g'ri taqsimlay olishi, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Dars davomida ortiqcha vaqt sarflash hollari ba'zan uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasining o'zgartira oladi.

6. Obro' orttira olish qobilyati o'qituvchilarning hissiyoti va irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishidir. Obro' o'qituchining fanni yaxshi bilish, mehribonligi asosida ham qozonadi. Bu qobilyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarning butun mazmuniga, chunonchi, uning irodaviy, sifatlariga (dalilligi, chidamligi, qat'iyligi, talabchanligiga) shuningdek, o'quvchilarga ta'lim

hamda tarbiya berish mas'ulyatini his etishga, o'zining o'quvchilarga yetkaza olishga bog'liq .

O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, to'g'ri, talab qila oladigan o'qituvchini juda hurmat qiladilar. O'qituvchining, loqaytligi, prinsipsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To'g'ri muomala qila olish qobilyatini - bolalarga yaqinlasha olish o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligidadir.

8. Oldindan ko'ra bilish qobilyati o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishni tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobilyat tarbiyaning qudrati va odamga bo'lgan ishonch bilan bog'liq.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobilyati o'qituvchida diqqatni barcha xususyatlar – hajmi, kuchi, qo'nvchanligi, idora qilinish safarbarligi kabilar tarqqiyot etgan bo'lishi muhimdir.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobilyati – o'qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobilyatli tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini; o'z fikrini (yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi ayni vaqtda barcha o'quvchilarni ko'rib turadi, toliqish e'tiborsizlik, alomatlarini tez payqab oladi, intizomsizlik hollarini etibordan qochirmaydi, nihoyat o'z hatti harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o'quvchilarni etibordan chetda

qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo'qotib qo'yadi.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobilyatlardan tashqari bir qancha ijobiy qobilyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Bunday xususyatlar bo'lmasa, o'rtamiyona pedagogik darajasidan yuqoriga qaratila olmaydi. Har bir kasbga, jumladan o'qituvchi kasbiga professiogramma yaratish uchun tafsiya qilingan tizim besh bo'limdan iborat:

- I. Mutaxassislik haqida umumiylumot .
- II. Mehnat jarayoni tavsifi .
- III. Mehnatning sanitar --gigienik sharoitlari .
- IV. Kasbiy faoliyatning psxofiziologik tavsifi .
- V. Kasbiy tayyorgarlikning shakli va tavsifi bo'limlaridan tashkil topgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi - professiogrammsi. Xalq xo'jaligining - xalq ta'limi sohasi. O'qituvchilik kasbining vujudga kelishi kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar, yurish - turish, mehnat sohasida va turmush kechirish uchun yuzaga kegan dastlabki tajribalarni, urf-odatlarni, aqliy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish, yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Odamlar to'plagan turmish tajribasini, yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga vamehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji vujudga kelishi

natijsida qadim zamonlardayoq ta’lim – tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo’lgan.

Yoshlarga ta’lim – tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagogik, professor deb, bolalarni to’plib o’qitiladigan joyni esa maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. Pedagogika fani tarixiga doir manbalarning guvohlik berishicha, eng qadimgi maktablar. Sharq mamlakatlarida, jumladan, Xolday, Vavilon, Misr, Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochilishini misrliklardan, greklar, greklardan rimliklar o’rganib olganlar.

Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta – katta qo’rg’onlar, shaharlar davlatlar mavjud bo’lgan. Ularda din, yozuv, maktablar va madaniyat shakllanib rivoj topgan.

Shu tariqa, kishilik jamiyatining ijtimoiy - tarixiy taraqqiyoti davomida shu xalqning e’tiqodi, mafkurasi va ilg’or g’oyalari bilan hamohang ta’lim va tarbiyaga bo’lgan ehtiyojlar, o’quv tarbiya jarayonlari va u bilan bog’liq bo’lgan zaruriy sharoitlar, o’qituvchi bilimi, shaxsi va faoliyati rivojlanib kelgan.

Ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog’liq holatda kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan o’zgarishlar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuning qoidalariga muvofiq holda o’qituvchining kasbiy faoliyati milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimida yuz bergen jahon miqyosidagi fan - texnika yutuqlarini egallash asosida, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etish jarayonida o’zgarib takomillashib boradi.

O’quv tarbiyaning texnologik jarayonida kasbning o’rni va roli.

O'qituvchi o'z sohasining bilimdoni va namunali xulqi bilan fidoiy inson sifatida har bir o'quv mashg'ulotiga davlat ta'lif standarti, shunga asoslangan o'quv reja va namunaviy o'quv dasturiga binoan puxta tayyorgarlik ko'radi. Mazkur mashg'ulotning sifat samaradorligini ta'minlash uchun zaruriy ko'rgazmali qurollardan, mahalliy va hududiy materiallardan, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan o'rinali va umumli foydalaniladi.

Kasb rivojining istiqbollari.

Barkamol insonni voyaga yetkazish, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish, kuchli demokratik fuqorolik jamiyati qurish bilan bog'liq milliy dasturning barcha muhim vazifalarini hal qilishda o'qituvchi kasbi barcha zamonlarda va hamma vaqt e'zozli kasbligicha qolaveradi.

Turdosh kasblar.

1. Tarbiyachilar.
2. Ijtimoiy fan o'qituvchilar.
3. Tabiiy fan o'qituvchilar.
4. Aniq fan o'qituvchilar.
5. Adabiyotshunoslar.
6. Olimlar

Mutaxassisning ishlashi lozim bo'lgan joylar .

Maktab, bog'cha, litsey, kasb - hunar kolleji, oliy ta'lif mutaxassislari muassasalari, xalq ta'limi bo'limlari pedagogik ilmiy tekshirish institatlari.

Faoliyat doirasi va ish turi .Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mutaxassisligi ijtimoiy - gumanitar soha doirasiga kiradi. Mazkur kasb egalari asosan aqliy mehnat bilan shug'ullanadilar. O'qiydi, uzluksiz malaka va mahoratini oshirib boradi,mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'radi, o'quv - tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi. Ish faolliyati aqliy va jismoniy harakatlar yordamida amalga oshadi.

Mehnatning maqsadi va predmeti.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatning maqsadi yoshlarga o'qish va yozishni o'rgatish orqali voqelikdagi jamiki narsa - hodisalar haqida bilim berish, ularda insonga xos bo'lgan sifat hamda fazilatlarni shakllantirish.

Mehnatning predmeti - o'quvchi, ta'lim - tarbiya .

Asosiy mehnat quollarining tipi va ularning qisqacha tavsifi.

O'quv rejasi, o'quv dasturi, o'quv darsligi, o'quv qo'llanmasi, har bir mashg'ulot bo'yicha ma'ruza matni sinf jurnali, daftar, doska, yozuv qurollari, mashg'ulotlarni samarali tashkil qilishga mo'ljallangan o'quv texnika vositalari va boshqalar.

Mazkur mehnat qurollari mashg'ulotining sifati va samaradorligi bilan bir qatorda uning yaxlitligi, uzviyligi, mantiqiy izchilligi va bir butunligini ta'minlaydi.

Asosiy ishlab chiqarish jarayoni.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqa fan o'qituvchilar kabi o'quv - tarbiya jarayonlarini belgilangan qonun va qoidalarga binoan tashkil

etadi va amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatining ishlab chiqarishga oid tavsifi: mazkur faoliyat og'ir va murakkab bo'lib yosh bolaning (7-11 yosh) jismoniy, aqliy va axloqiy kamoloti va kasbiy tayyorgarligiga uzviy bog'liqdir. O'qituvchi bir kunda 8-10 soatgacha ishlaydi. U mакtabda 4-5 soat dars mashg'ulotini o'tkazsa, kutubxona, o'quv zali yoki uyda sohasiga doir zaruriy bilim va yangiliklarni o'rganishi, ertangi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida mustaqil ishlashi uchun yana 4-5 soatgacha vaqt sarflaydi.

Boshlag'ich sinf o'qituvchisi ta'lrim tizimi va o'quv - tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va xalq ta'lmini boshqaruvchi idoralar buyruqlarini muntazam o'rganib unga amal qiladi. Maktab pedagogika kengashi, boshlang'ich ta'lim uslubiy kengashi shu sohaning tajribali mutaxassislarini va ota-onalar hamda jamoatchilik kengashi bilan doimiy hamkorlikda ishlaydi.

O'quvchilarning yosh davriga (7-11 yosh)xos jismoniy va psixologik rivojlanishi qonuniyatları va xususyatlarini o'rganib ularni e'tiborga olgan holda o'quv tarbiya jarayonlarini tashkl etadi.

O'quv - tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim- tarbiya an'anaviy metodlari bilan birga yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan innovatsion, interfaol va psixologik treninglarga xos metodlardan ham samarali foydalanib boradi.

U haftada bir kun yakshanba kuni, har bir o'quv choragi yakunida va o'quv yili yakunida mehnat ta'tiliga chiqib, dam oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ish faoliyatining tarkibiy qismlari;

1. Ertangi o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarga tayyorgarlik ko'rish:

Manbalarni o'qish , o'rganish , tahlil qilish , zaruriy xulosalar chiqarish:

Dars mashg'ulotlari tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish va matnni tayyorlash .

2. Ta'lif berish.

3. Tarbiyalash .

4. Sinf o'quvchilarida yosh davriga xos bo'lgan jismoniy va psixologik xususiyatlari hamda rivojlanish qonuniyatlarini kuzatib, o'rganib borish va o'quv tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ularni e'tiborga olish.

5. Maktab pedagogika kengashi, boshlang'ich ta'lif uslubiy kengashi a'zolari, shu sohaning tajribali mutaxassislari, ota – onalar hamda jamoatchilik kengashi bilan hamkorlikda ishslash.

6. Bilim, malaka va mahoratini oshirish uchun o'z ustida muntazam ishslash.

Qiyinchilik turlari

Eng avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxslilik va kasbiy tayyorgarligi belgilangan talab va kasbiy tayyorgarligi belgilangan talab va me'yorlar dajasida bo'lmasligi, ushbu pedagogning faoliyatda muammolar vaqiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Agar, o'qituvchining shaxslilik va kasbiy tayyorgarligi belgilangan talab va meyorlar darajasida bo'lsa, u holda uning faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar asosan ertangi o'quv - tarbiyani amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yetarli bo'lмаганлигидан: o'quv – tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh individual psixologik xususiyatlarni to'liq e'tiborga olmaganlikdan: shuningdek, muallimning maktab o'qituvchilari jamoasi, o'quvchilarning ota – onasi, mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik ni yetarli darajada yo'lga qo'ya olmaganligidan kelib chiqishi mumkin.

Mehnat sharoitining mikro iqlimi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yili 1-sentabrdan 25-maygacha davom etadi. O'quv yilining noyabr, mart, aprel oylarida yomg'ir yog'adi, dekabr, yanvar, fevral oylarida yomg'ir yog'adi, ba'zan qattiq sovuq bo'ladi. Yomg'irli kunlarda yerning loy bo'lishi, qishda haroratning pasayib ketishi yozda haroratning ko'tarilib ketishi va chang to'zonlarning qo'zg'alishi o'quvchi mehnat sharoitining sanitar - gigienik holatiga keskin salbiy ta'sir etadi.

Ish rejimi va ritmi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ish rejimi va ritmi aniq belgilab qo'yilgan me'yorlarga asosan amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda milliy (hayitlar, bayramlar va boshqa) yoki hududiy (iqlimiyl, ommaviy hasharlar) xususiyatlar munosabati bilan o'zgarib turishi mumkin.

Kasb uchun zaruriy omillar.

Mehnat faoliyatining murakkab va og'irligi, uni uzlucksiz bir joyda davom etishi, o'qituvchidan muntazam holatda kuchli e'tibor, chidam, sabr –bardosh va mas'uliyatni talab qilishi unda kuchli toliqishning yuzaga kelishi, unda jismoniy va psixologik toliqish hamda zo'riqishlarni yuzaga kelishi -kasbiy kasalliklar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Mehnat faoliyati jarohatlari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnat faoliyati davomida shu soha mutaxassislari uchun belgilab qo'yilgan ish rejimi va me'yorlarga amal qilmasa, bunday holatlar o'qituvchida asta-sekin mehnat faoliyati tvarmalarini keltirib chiqarishi mumkin.

Mehnatni himoya qilish yengilliklar bo'yicha tadbirlar.

O'zbekiston Respublikasida boshqa davlatlardan farqli o'laroq, o'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nisholanadi; ular ta'lim - tarbiya sohasida erishgan yutuqlari uchun yuksak baholanib, davlatimizning orden va medallari bilan mukofolananadilar.

O'qituvchining axboratlarni qabul qilish hajmi va xarakteriga umumiyl baho.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida bevosita o'quv-tarbiya jarayonining borishini, ta'lim sub'ektlari holatini, ularning ta'lim jarayoniga, pedagogga, bir-birlariga, atrofdagi voqelikka nisbatan munosabatlarini faol kuzatish, ko'rish, eshitish va idrok qilish asosida olayotgan axborotlarini fikran tahlil qilib boradi.

O'qituvchi biror-bir sabab bilan o'quv-tarbiya jarayonida yoki boshqa holatlarda yuz berishi mumkin bo'lgan yoki

yuzaga kelgan o'zgarishlar, salbiy holatlar va muomolarni zudlik bilan ilg'ab olib, uni o'rganishi, tahlil qilishi va zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amaliyotga oqilona qo'llashi mumkin.

Sezgi a'zolarining sezuvchanlik xususiyatlari.

Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv – tarbiya jarayonida va boshqa holatlarda ayniqla ko'rish, eshitish, teri-tuyish, hid bilish, ta'm bilish, harorat va organik sezgilari yordamida o'quvchilarining ko'rinishi, o'zini tutishi, yuz qiyofasi, ko'z ifodasi harakatlari, nutqi va boshqa jabhalari ifodasini kuzatish orqali o'quvchi holatiga va shu vaziyatga to'g'ri baho bera oladi.

O'qituvchining aqliy faoliyatiga umumiyl baho.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh davrining jismoniy va psixologik rivojlanish xususiyatlari, shunga mos ravishda tashkil etilgan o'quv –tarbiya jarayonlarining kechishi undan o'ta kuzatuvchanlikni, alohida e'tiborni talab etadi. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar, yuzasiga kelgan muammoli holatlarni tezda o'rganib, o'qituvchi o'zining shaxsiy tajribasi va bilimiga asoslangan holda muammoni tahlil qiladi, taqqoslaydi, hamda muammoni tahlil qiladi, uni yechishning eng ma'qul yo'lini tanlaydi. Yana shunga o'xshash xatolar takrorlanmasligi uchun ta'limiy va tarbiyaviy choralar hamda istiqbolli tavsiyalar ishlab chiqadi va o'quv tarbiya jarayonida undan o'qituvchi - o'quvchi hamkorligida samarali foydalanadi.

II Bob. Pedagogik faoliyatning mazmun –mohiyati, shakllari.

2.1. O'qituvchi faoliyatining axloqiy xarakteri.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni, pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy fazilatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar hamma kasb egalari, jumladan o'qituvchi tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalgalashiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilik fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqeylek shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi; bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloqiy normalari, talablarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy – axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llash, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va ahloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etsh turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliyaxloqiy sifatlar qoidalar normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi fikr va mulohazalari bilan qo'shilib bozor iqtisodiyotida asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchuning dars berish jarayonida

tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushdan o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazsa ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari joylarga axloqiy ta'sirini samaradorligida tarbiya sohasida erishgan yutuqlaridan nomoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini odobining asosiy hislatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar tushunchalarga, mos keladi va ularni pedagogik salohiyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi.

Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, adolat, shaxsiylik, yaxshilik qilish o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sh'nani qadir qimmati, vijdon, halollik, fidoyilik, oklik talabchanlik kabi ahloqiy fazilatlar. O'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahili qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish o'qituvchilik burchi qadr-qimmati, o'qituvchilik ma'sulyati o'qituvchilik vijdoni talabchan vaadolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqning muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega pedagogik saviyaning bunday hususyati barcha fan o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyachilar sinf va maktab rahbarligiga birdek ta'luqlidir barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi amaliy va xatti-harkatlari o'quvchilarga tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy, milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilish

lozim. Bu ish o'z navbatida muallim va o'quvchilardan axloq nazaryasi, axloqi tassaruf va tushunchalar o'qituvchi odobiga doir bo'limlarini muntazam ravishda oshirib borishni, muhokama mulohaza qilib uning mohiyatini tushunish mag'zini chaqishni talab etadi.

Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish ma'sulyati ish bo'lib buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi,saviyasiga mos ular tushunadigan misollarni izlab topishi tanlab oishi kerak. Pedagogik faoliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisidan axloqiy ma'rifatli yaxshi xulq egasi bo'lishni, axloqiy tajribaga ega bo'lishni, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularni axloqiy, bilimli qilish, bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalga bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba ortirishga ko'maklashish, o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga erishish zarur.

Axloqiy ma'rifat pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi bo'lib, ularning maqsadi umuminsoniy va miliy axloqning mohiyatini qonuniyatlarini ularning tamoyillari talablari qoidalariga doir bilimlarni axloqning odamlar hayotidagi o'rni va rolini muallimning o'zi anglab olishi va tarbiyalanuvchilarga va o'quvchilarga singdirishdir. Pedagogik xodimlarning hammasi barcha fan o'qituvchilarning faoliyati maqsadga qaratilishi zarur. O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish bu ularni axloqqa doirmuammolar axloqiy baho mezonlari bilan tanishtirish kishi biror ishni qilayotganda fikri, so'zi, hatti-harakatlarida ma'sulyatni va

erkinlik darajasini bilishi har bir harakatning xulq-atvorining oqibatini ko'z oldiga keltirish lozimligini yoshlarga aniqlatishdan iborat. Shu tariqa o'quvchilar hayotining ma'nosi yashashdan maqsad, baxt nima ekanligini anglab yetishlari lozim.

O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish vositalaridan biri ularga pand-nasihat berishdir. Nasihatni albatta o'rni bilan va meyorida ishlatish lozim. Aks holda u nasihatbozlikka aylanib ketadi. Keksalar sizdek paytida unday qilgan edilar, bunday qilgan edilar, siz urush nimaligini, qiyinchilik nimaligini ko'rmagansiz qabilida ta'na toshlarini otish, minnat qilish yoshlarning g'ashini keltirib nafratini qo'zg'atishi mumkin.

Keksalar haqida, ularning yaxshi an'analari, odatlari haqida gapirish bilan birga yoshlarga ham ibratli, yaxshi xulqini ma'qullash xolisona baholash zarur.

Muallim biror axloqiy qusurni o'quvchilar bilan birga tahlil etayotganida, iloji boricha, sinfda turgan o'quvchini misol tariqasida keltirmasligi yoki “o'quvchilardan qaysi biri bunga o'xshaydi” - deb, darsni bo'shroq o'zlashtiradigan yoki sho'xroq bolaga ishora qilmasligi lozim.

Bolalarni axloqiy ma'rifatli qilish uchun, muallim o'quvchilarning hissiyotiga ta'sir o'tkazadigan vositalaridan foydalanishi kerak.

Bunday badiiy adabiyot juda qo'l keladi. Masalan, hadislarning mazmunini ifodalagan she'rlar - Alisher Navoiyning “Qirq hadisi” Abdulla Oripovning “Hajdaftari” va boshqa kabilar kitoblardan

foydalanimish axloqiy saboq mashg'ulotlarini tiklantiradi, tarbiyaviy ta'sirini oshiradi.

O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilishda "Odobnoma" darslari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston maktablarida "Odobnoma" darsligi bo'yicha o'tkazilayotgan mashg'ulotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Muallimning axloqiy -ma'rifat faoliyati samarali bo'lishi uchun o'quvchi yoki talabaning axloqqa doir bilim darajasidan xabardor bo'lishi kerak. Bolalar bilan yakkama-yakka suhbatlar o'tkazish, savol-javob kechalarini tashkil etish, mashg'ulotlar jarayonida axloqqa doir savollar berish kabilar bunda qo'l keladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolarni axloqiy ma'rifatli qilish jarayonida shuni esda tutishi lozimki, "Hayot ma'nosi nimadan iborat?", "Kimni baxtli deyish mumkin?", "Baxtlilikni o'lchaydigan mezon bormi?" kabi axloqiy masalalarga yoshlarga hamma vaqt qiziqqan va qiziqadilar. Shuningdek, oilaviy hayot, jinsiy odob muammolarining axloqiy jihatlari ham yoshlarni o'ziga jalg etadi. Bunday suhbatlar chog'ida sinfdagi biror bolaning salbiy hatti-harakati haqida gap ochilgan bo'lsa, aksincha muallim bola shaxsiga va uning qadr-qimmatiga inson sifatida qarashi, hurmat bilan yondashishi zarur.

Axloqiy tajriba.

O'quvchilarda axloqiy tajriba hosil qilish pedagogik faoliyatining muhim jihatlaridan biri bo'lib, u ijobjiy axloqiy hatti-harakatlarini bajartirish, mashq qildirishdan iborat.

Bu jarayonda o'qituvchilar va ota-onalar rahbarlik qiladilar. O'qituvchilar bu ishga pedagogikadan bilimdon mutaxassis

sifatida yondashish, bolaga axloqiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha omillarni hisobga olish lozim. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogika o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida bu sohada katta imkoniyatlarga ega bo'ishadi. Chunki, oquv yurtidagi nazariy mashgulotlar bo'lajak o'quvchilarning pedagogik amaliyoti bilan birga amalga oshiriladi, o'quvchilarni axloqiy ma'rifatili qilishga doir tadbirlarni topshiriqlarni bajaradilar, o'quvchilarga axloqiy mavzularga ma'ruzalar qilib, ular bilan suhbat, uchrashuv anjumanlar o'tkaziladilar, sayohatga birga borib tarbiyasi qiyin bolalarga homiylik qiladilar o'qiuvcining oilasidagi ma'naviy-ruhiy vaziyatni o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar bilan birga ijtimoiy foydali mehnatda, yozgi dam olish oromgohlarida ishlash jarayonida ham axloqiy tajribasini tashkil etish, ularga yaxshi xulq-odoblarni mashq qildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'quvchilarni foydali mehnatning xilma-xil turlariga jalb etish, axloqiy tajriba ortirishning muhum shartidir. Bolani axloiy jihatdan tarbiyalashda mehnat faoliyatining ahamyati katta. Mehnat jarayonida tejamkorlik, hamkorlik, mehnatsevarlik, uddaburonlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi.

O'qish bola bajaradigan murakkab mehnatdir. Yetti yoshdan boshlab bola o'qishga jalb etiladi. O'qish sohasida erishilgan dastlabki yutiqlar uning qalbiga quvonch bag'ishlaydi, savod chiqarishda uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Boshlag'ich sinf o'quvchilarining qobilyati har xil bo'lsa ham, tirishqoqligi tufayli ularning barchasi ma'lum yutiqlarni qo'lga

kiritadi. Bu borada boshlang'ch sinf o'qituvchisi bolalarga o'qishga qiziqish va ehtiyojni intiluvchanlikni tarbiyaviy bilim juda muhim ahamyat kasb etadi. O'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatida uning boshlang'ich sinf o'qituvchisiga va u o'qiyotgan fanga axloqiy munosabati namoyon bo'ladi.

Umumiy ta'lim mакtablarida bolalarni kasbga yo'naltirishi sohasidagi ishlarga jalg etish ham axloqiy tajriba hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining bu sohadagi muhim vazifalardan biri tarbiyaviy ishlarni tanlab, ularga turli topshiriqlar berib, qo'yи sinf o'quvchilarini bilan tarbiyaviy ishlarni bajarishga jalg etishdir. Bo'lajak oqituvchi o'quvchilarini bu kabi ishlargajalg etish jarayonida uning o'zi ham axloqiy jihatdan mukammalashadi, pedagogik tajriba ortiradi. Maktablarda o'quvchilarining oz-o'zini boshqarishning turli sohalarga qiziqtirish bolalarning axloqiy tajribasini tashkil qilishda katta ahamyat kasb etadi. Sinfda, maktabda navbatchilik qilish natijasida bolalar intizomini, tozalikni o'rganadilar. Bu ishlarni bajarish jarayonida bolada talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanib boradi. Sinfda sinfdoshlik vazifasini bajarish talabchanlik, adolatli bo'lish talabchanlik, halollik kabi axloqiy sifatlarni mashq qildirish uchun muhimdur. Bu jarayonda bolada burchini bajarish ma'suliyatini his qilish, kattalarning topshirig'ini bajarish, tengdoshlariga topshiriq berish kabi axloqiy hati-harakatlariga doir ko'nikma hosil bo'ladi, bola haqiqiy tajriba ortiradi. Ayniqsa yoshlar tashkilotlarining ishlarida faol qatnashish, badiiy havoskorlik, fizkultura va sport, munozaralar konferensiyalar o'tkazish kabilar

bolalarda tashkilotchilik qobilyatini o'stirish bilan birga, ularning xulqini mashq qildirish takomillashtirish maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy mashqlarni bajartirish jarayonida maktab, oila, o'qituvchilarva ota-onalar bilan bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishlari muhimdir. Ayrim oilalarda ota-onalar o'zлari sezmagan holda bolalari qalbiga qaysarlik, o'jarlik, o'zboshimchalik, ochko'zlik, kattalarga ishonmaslik urug'ini sepgan bo'ladilar. Bunday bolalarga yaxshi ishlarni bajartirish ancha qiyin kechadi. Bundaylar orasidan "tarbiyasi qiyin" bolalar yetishib chiqadi. Qaysar bola ko'pincha kichikligida katta yoshdagi kishilarning yaxshi niyati, odilligi ishonchini yo'qotgan bo'ladi. Bolaning murg'ak qalbida paydo bo'lgan bu ishonchsizlik asta - sekin dushmanlikka, shavqatsizlikka va uni yomon ishlar qilishga undaydi. Bundaylarni gap nasihat bilan tuzatish amrimahol, ularni amaliy ishlarga faol jalb etish lozim. Chunki, elat bolaning qalbni, vujudini butunlay egallab oladi. Sinf rahbari, o'qituvchi bundan kech xabar topmasa ham, bola qalbini bu shumlikdan tozalashni o'z burchu deb bilishi kerak, oiladagi jaholatni asoratini insoniniylik,adolat, xayri xoxlik bilan bartaraf etish zarur.O'z xulqidagi nuqsonlarni yo'qotishda bo'lgan samimi yordam kerak. Pedagogik mahoratga ega bo'gan o'qituvchigina bola qalbiga yo'l yopib yaxshi ishlarni amalda bajartirib, undagi qaysarlikning bartaraf etilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining fidoiy ishlarini, yashashhati-harakatini ko'rgano'quvchi unga erishadi. Muallim bolalar bilan ishlashi, birga ovqatlanishi kabilar ham axloqiy ta'sir o'tkazishda

muhimdir. O'qituvchi "Muallim aytganini qilgin qilganini qilma" qalbida ish tutish mumkin emas.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash.

Pedagogik faoliyatning muhim jihatidan biri o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash dir. Orta Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarda inson o'zligini anglab olishi, o'z odatlari va sifatlarini o'zlashtirishga va sifatlarni o'zlashtirishga qodir ekanligi ta'kidlanadi.

Ijodiy faoliyat jarayonida insonga o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hosil bo'ladi, u o'z istaklarini o'z ishini o'z irodasiga bo'ysundirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kishining o'z ishini axloqiy bilimlar, e'tiqodlar asosida shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyati o'z -o'zini axloqiy tarbiyalashdir.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash bu kishining ijtimoiy tajribada mavjud bo'lgan va shu jamiyat a'zolarining ongida mustahkamlanib qolgan axloqiy odatlar va sifatlarni egallab olishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Demak, o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat talablari asosida belgilanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash har bir shaxsning mehnat jamoalari ma'lum bir guruh, kasb egalarining mehnat faoliyatida qatnashi jarayonida yuz beradi. Jamiyatda axloqiy tarbiyaning va o'z-o'zining tarbiyalashning maqsadi va mazmuni bir xil bo'ladi. Bu maqsadga erishish axloqiy tarbiyaning natijasi va jamiyatni taraqqiy tirishning sharti hamdir. Uning uchun ham o'z-o'zini

axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

Maktabda o'qish yillari inson hayotida axloqiy izlanishlar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarni o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etish samarali bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarga ibrat olishlari egallashlari uchun namuna bo'ladigan dalillarni topishga ko'maklashishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishini tashkil etish, amalga oshirishga davat etar ekan, avvalo uning o'zi o'z shaxsini muntazam takomillashtirishi, o'zining axloqiy saviyasini kengaytirib, axloqiy odat va sifatlarni o'stira borishi lozim.

O'quvchi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashi uchun ma'lum shart-sharoitlar ham zarur. Bulardan eng muhimi o'z-o'zini tarbiyalashning negizi sifatida o'z bilimlarini mustaqil oshirishi uchun bo'sh vaqtga ega bo'lish, pedagogik jamoada o'qituvchining o'z ustida ishlashga ko'maklashadigan tegishli muhit mavjudligi. Bu shart-sharoitlardan birortasi bo'lmasa ham o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni susayadi. Bu sharoitlar bo'lgan taqdirda ham, agar o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashga xohish o'z-o'zini tarbiyalash maqsadi qat'iy bo'lsa, muallim o'zi mo'ljallagan maqsadga erishish uchun irodani ishga solib, astoydil intilmasa, o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash sohasida biror samaraga erisha olmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishiga jiddiy kirishishi uchun irodasi kuchli, axloqiy tarbiyalangan bo'lmg'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida ishlaydigan o'qituvchining ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan (belgilaydigan) axloqiy fazilatlardan eng muhimlari qo'yidagilar: o'z ishiga vijdonan va tanqidiy munosabat; mehribon vaadolatli bo'lish; halollik va xushmuomalalik; kamtarlik, o'z kasbini va bolalarni sevish; o'z kasbidan g'ururlanish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu axloqiy fazilatlarni o'zida tarbiyalashi uchun, avvalo, bunday axloqiy sifatlar pedagogik faoliyat uchun ijtimoiy qimmatli va zarur ekanligini, shuningdek bu sifatlardan qay biri unda kamroq rivojlanganligini anglab, bilib olishi zarur. Lekin o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun buni anglab yetishning o'zигина kifoya emas. Buning uchun muallim aniq bir maqsadni ko'zlab intilishi, faol harakat qilishi lozim. Davlat va jamiyat oldidagi o'z pedagogik burchini yuksak darajada his etgan mullimgina bu sohada uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni bartaraf etib, ko'zlagan maqsadga erisha oladi .

O'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash jarayonida zarur axloqiy xislatlardan biridir. Bunday xislat o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun kishiga o'z kamchiliklarini aniqlash, o'z oldiga ularni bartaraf etish maqsadini qo'yishga imkon yaratadi. Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-xarakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun ham kishiga bunday xislatlarni yoshlik chog'idan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq.

Kuzatishlar va o'qituvchilar bilan suhbat natijalari qo'yidagi xulosaga kelishi uchun asos bo'la oladi: boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z hatti- harakatlarining axloqiy qimmati haqidagi

tasavvuri, tushunchasi uning pedagogik mahorati darajasiga, pedagogik burchini sezish va bajara olish darajasiga bog'liq; bu o'z navbatida, muallimning pedagoglar jamoasigagi obro'yiga ta'sir etadi. Odatda, o'z ishining ustasi, mohir o'qituvchilar o'z- o'ziga o'z ishiga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan va o'z bilimlarini muntazam oshirib borishga intiluvchan bo'ladilar. O'rtacharoq pedagoglar esa xotirjam yuraveradilar, o'qituvchining bilimi sayozligi muallimning pedagogik manorati darajasiga bog'liq emas, deb hisoblaydi. Bunday o'qituvchi o'z bilimlarini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalashga befarq qaraydi. Ko'pincha, o'qituvchilar o'rtasida ham katta o'bro orttira olmaydi.

Demak, har kim o'z kuchi va imkoniyatlarini oqilona ongli baholay olish, yo'naltrilishi, boshqara bilishi boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning muhim shartidir. O'z-o'zini baholash deganda kishining qobiliyati va bilimlari, pedagoglar jamoasi mavqeい axloqiy sifatlari, odatlari, ko'nikma va malakalarini baholay olish nazarda tutiladi. Bu har bir kishi o'z fazilatlar va kamchiliklarni tasavvur etib baholay olish, o'z hislatlarini his etib oqilona yo'l tutish demakdir.

O'qituvchilar nazarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi inson kamolotining ko'zgusi hisoblanadi. O'qituvchilar muallim timsoliga barcha yaxshi fazilatlarni mujassam ko'rishni istaydi. Lekin, radio, televidenie, ommoviy axborot vositalari ko'paygan hozirgi davrda o'qituvchilar uchun axborot olamining yagona manbai emas. Endigina bolalar muallimning fazilatlari va

xislatlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatiga ko'proq egadirlar. Shuning uchun ham hozirgi davr boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy qiyofasiga qo'yiladigan talablar juda yuksakdir. Bu esa, o'z navbatida, muallimdan o'z bilimlarini mumtazam oshira borish va o'z - o'zini axloqiy tarbiyalab borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning mohiyati ideal talablariga mos ravishda o'zining fazilatlari, odatlari va xislatlarini takomillashtirib, o'zgartirib borishni ongli ravishda belgilab olishdan iborat.O'quvchisining ko'z o'ngida inson kamolotining yuksak timsoli bo'lish uchun muallim o'z bilimlarini mumtazam to'ldira borish bilan birga optimist bo'lishi, kelajakka ishonch mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilarga, kasbdoshlar va ota-onalarga munosabatini, xulqini belgilaydi. Bu muallim faoliyatining pedagoglar jamoasi va ma'muriyat nazorat etishi, tanqid qilish va rag'batlantirish usullari bilan amalgalashiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'z axloqiy fazilatlarini takomillashtirish talab etuvchi omillardan yana biri bolalar orasida, pedagoglar jamoasidan o'bro orttiishiga intilishdir. Bu ham muallimni o'z - o'zini axloqiy tarbiyalashga da'vat etuvchi omillardandir. Boshlang'ch sinf o'quvchisining obro'yi esa uning pedagogik mahoratiga, ta'lim - tarbiyaga mafkuraviy va nazariy tayorgarlikga, faoliyatiga, o'quvchilar va ota-onalar bilan ishlash usulariga, oiladagi xulqiga, bilim - saviyasi, o'quvchilar va o'z kasbdoshlariga xayrixohlik kabilarga bog'liq. Bu

fazilatlarni o'qituvchi faoliyati jarayonida egallaydi va o'z - o'zini axloqiy tarbiyalash yo'li bilan takomilashtiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z - o'zini axloqiy tarbiyalashga undovchi omillardan yana biri so'z va ishning birligida intilish, tarbiyalanuvchilar uchun ibrat bo'lishi istagidir. Shuningdek, o'quvchining darsga kechikib kelishi, bolalarning dars qoldirishi va kechikishlarga sabab bo'lishi ham mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z - o'zini kuzatish va nazorat qilib borishi muntazam bo'lmosg'i kerak. Bunday ish, odatda, ma'lum bir muddatga mo'ljallab amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisin o'zini nazorat qilishi uchun o'quvchiga, kasbdoshlariga, ota-onalariga, bergen va'dasini alohida daftarga yozib borishi mumkin. Buning natijasida o'quv yili yoki faoliyat davomida axloqiy harakatdagi juda ko'p pedagogik faktlar, materiallar to'planadi.

Bu daholardan biri qoidalarga amal qilishi, o'z faoliyati uchin asos qilib olgan: hovliqmaslik, ayniqsa tashqaridan qaraganlar uchun xotirjam bo'lib ko'rish, so'zda va hatti-harkatdan rostgo'y, dangal bo'lish, o'zi haqida kamroq gapirish, mo'ljallangan kerakli ishlni albatta bajarish zarur va kerakli narsalargagina sarf - harakat qilish har kuni biror qilgan yoki qilmoqchi bo'lgan ish haqida maqtanmaslik.

2.2. Pedagogik faoliyatning texnologik yondashuv.

Jamiyat taraqqiyoti hozirgi davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarni texnologiyalashtirishini taqoza qilmoqda. Ayniqsa pedagogik faoliyatning texnologiyashtirish har qachongidan ham zaruriyatga aylonmoqda.

Bu zaruriyat quydagilar bilan izohlanadi.

- birinchidan jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi hamda aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida.

- ikkinchidan o'qituvchi faoliyatiga faqatgina o'quv jarayoning tashkilotchisi emas, balki nufuzli bilimlar manbayi sifatida qaralayotganligi:

- uchinchidan, fan texnika taraqqayotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotning keskin ko'payib borganligi va ularni yoshlarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi.

- to'rtinchidan, kishilik jamiyati va taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkuridan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotgsnligi;

- beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa yondashuv tamoyillaridan foydalanishni talab qilnayotganligi.

Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish pedagogik tizim davrasida bajariladigan amallardan iborat.

Har qanday jamiyatda pedagogik tizimning maqsadi. Jamiyatning shaxsini shakllantirishga qo'yan talablari asosida tizim ham o'zgarishi mumkin. Juda ko'p taraqiyotlarga asoslangan holda V.P.Bespalkov pedagogik tizimining o'zaro bog'liq oltita elementni ko'rsatadi.

- Bular :
1. O'quvchi.
 2. Ta'lif - tarbiyaning maqsadi.
 3. Mazmuni.
 4. Didaktik jarayoni.
 5. O'qituvchi yoki texnik vositalar.
 6. Ta'lif tarbiyaning tashkiliy shakllari

Bu tizimidagi dastlabki 3 element didaktik vazifa qolgan 3 tasi ta'lif texnologiyasi sifatida ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan chizmada shaxsda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtaсидаги bir-biriga bog'liq aloqa ko'rsatiladi.

Pedagogika tizimning bu tarkibida har qanday ilmiy nazariyada uchraydigan dastlabki tushunchalar: vazifa va uning yechish texnologiyasi ko'rsatilgan.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayoni umumдорligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shallantiradi, o'qituvchilarda bilimga ishtiyоq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarni shaklantiradi.

Pedagogika texnologiyaga asoslangan ta'lif jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi.

Pedagogika texnologiyaning muhim xususylari belgilari quyidagilar:

- ta'lim jarayonini oldindan lohiyalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish.
- tizimli yondashuv asosida o'quvchining o'qish bilsh faoliyatini ta'svirlaydigan ta'lim jarayoni lohiyasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'yektiv baholash;
- ta'lim jarayoning tuzilishi va mazmuning yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim shakllarini optimalashtirish, qulaylashtirish;
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'siri hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish:
O'quvchining faolligiga tayanib o'qitish:
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarini aniqlab tuzatib borish:
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholash;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishining kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradirligining yuqoriligi.

Aniqroq qilib aytganda pedagogika texnologiyaga asoslangan faoliyat deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat

va san'at tushunilib u juda qulay usllar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lif jarayonini maqsadini belgilash muhim bo'lib u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim.

Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadini aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti maqsadini va har bir o'tadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat. Bular:

- 1) Motivlar.
- 2) O'quvchining o'quv—bilish jarayoni.
- 3) Boshqarish.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rinni tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo'ladi.

Ta'lifda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivasiyaning asosli samarali bo'la olishini ta'minlaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach,

dars davomida o'quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o'raganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayoning samaradorligini ta'minlaydi.

O'qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o'quvchilarning o'qish-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to'liq amalga oshsin.

Ta'lim jarayonini boshqarish o'quvchidan katta mahorat talab etadi. U dars ishlanmasida boshqaruv yo'llarini belgilab oladi. O'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'llarini, o'quvchilar bilimini nazorat etish yo'llarini aniq ishlab chiqadi. Ta'lim natijasini tekshirib, maqsadni nechog'li amalga oshganini aniqlaydi va keyingi loyihani tuzishda korrektirovkalar kiritib yo'l qoyilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etadi.

Biz quyida 1-sinf o'qish darsi algoritmidan namuna ko'rsatamiz. 1-sinf o'qish darslarining tuzilishi, ta'lim–tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o'rganiladigan materiallarning xususiyatiga ko'ra turli xildir. Shuningdek, dars qurilishida ham qat'iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsining taxminiy algoritmini keltiramiz.

Drasning maqsadi:

Ta'limiylar maqsad:

- a) O'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakalarini shakllantirish;
- b) Matn mazmuniga ko'ra , o'quvchilarning xususiyatiga mos tabiat , jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish ;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish;
- b) Matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy - axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekalogik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) O'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) Tez , ravon , to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- c) Dunyoqarashlarni, xulq odat, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish:

Darsni tashkil etish:

1. O'quv elementi. Motiv hosil qilish:

Buni darsningo'tgan darsni mustahkamlash qismsida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniлади.

2. O'quv elementi. Matnni o'qishga tayyorgarlik: Yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o'quvchilarning matnga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz deb,

o'quvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3. O'quv elementi. Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o'quvchilar faoliyatidan ham foydalanishi mumkin.

4. O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

5. O'quv elementi. Lug'at ustida ishslash. Notanish so'zlarga izoh berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi (bunda ko'proq o'quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

6. O'quv elementi: O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat yaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

7. O'quv elementi. Topshiriq bilan o'qish. O''qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullardan foydalaniлади. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismning mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rGANISHIGA yordam beradi.

8. O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

9. O'quv elementi. Matn mazmuni ustida ishslash. O'quvchilar matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

“Zanjir” o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

“Tez javob”: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kiruvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytlishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof - muhitni sinchkovlik bilan kuzatishgao'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqeal va hodisalarga qiziqlishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi : “Hayvon”

O'quvchi : “It”

O'qituvchi : “O'quv quroli”

O'quvchi : “Daftar”

O'qituvchi : “Sinf jihozi”

O'quvchi : “Xattaxta”

O'qituvchi : "Ertaklar"

O'quvchi : "Zumrad va Qimmat" kabi.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

10. O'quv elementi. O'quvchilar bilmini nazorat qilish. Nazoratni yuqoridaagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalasnib o'tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars tehnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni talomillashtiri mumkin. Agar maqsadga erishilgan darajasi past bo'lsa, demak loyhani korektirofka qilish kerak. O'qutuvchi qayerga hato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining agroitmi bo'lb ,uni boshqacha tarizda ham tashkil qilish mumkin.

Mustahkamlash - umumlashtirish darsining maqsadi esa o'quvchilar bolim yuzasida o'rgangan bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirishga xizmat qiladi, bundan tashqari o'quvchilar bilmini nazorat qilishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday darslar loyihasini qiziqarli yoki noan'anaviy tarzda ushlashga etibor qaratilsa ancha samarali bo'ladi.

III Bob. Ta’limning zamonaviy texnologiyalari.

3.1. Modulli o’qitish texnologiyasi va innovatsion texnologiyalar.

Talim va tarbiya-ijtioiy tajribalarni o’qituvchi rahbarligida o’zlashtirishga qaratilgan maqsadli ta’sirdir. Talim va tarbiya jarayonida pedagogik tizim faoliyati va sifatida insoning rivojlanishi boshqariladi.

Pedagogik tizimning maqsadlari; insonlarda o’z – o’zini boshqarish qobiliyatini boshqarish asosida ularni boshqarish ob’ektividan boshqarush sub’yektyiga aylantirish. O’qituvchi va o’quvchining faolligi uning boshqarish sub’eyekti sifatida ozmi, ko’pmi, o’z faoliyati va hulqini boshqarishda ,shuningdek, boshqalar xulqiga ham ta’sir ko’rsatishidako’rinadi. Hozirgi davr o’quv o’quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish vazifalarida biri o’qish-o’qitish jarayonini qulay intensifiikatsiyalashdir. Uning tarkibiy qismiga quydagilar kiradi: Talim maqsaiga qaratilganligini rivojlantirish, uning motivatsiyasini kuchaytirish, talim mazmunining axborot hajmi, ta’limning ilg’or va metodlarini qo’lash, ta’lim tanpini faollashtirish, ta’lim mehnatining refleks ko’nikmalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Zamonaviy pedagogik yondashuv ta’lim jarayoning diqqat markazida o’quvchining o’quv-biluv faoliyatini qo’yish, ta’lim jarayonini taxminiy loyihalash, diagnostikligi, maqsadning aniqligi va natijaning ob’yektiv nazorat, ta’lim jarayoning yaxlitligi kabilarga qaratilgandir. O’quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko’rsatkichi

uni o'quv – biluv faoliyatini o'zi tashkil etishi iroda va faoliyaning o'quvchi ongining predmetiga aylanishidir.

Bu maqsadni mustaqil g'oya bilish, faoliyat usullarini tanlay bilish, o'z ta'sirlari va munosabatlari davrasida boshqalar bilan kelisha bilish va koordinatsiyalash, o'z-o'zini nazorat qila bilishlarida ko'rindi. Bunday faoliyat ta'limning modulli texnologiyasi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Modul nima va uni qanday shakllantirish kerak?

Modul lotincha “modulus” so'zidan olingan bo'lib – me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyolashning har xil usullari mavjud.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materiali blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanma tuzilmasida qo'yidagi konspektiv talab va qoidalar aks etadi.

- modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad.

- ta'lim standartida berilgan predmet o'quv elementlarida maqsadning oydinlashishi.

- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar.

- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi.

- o'z-o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta'lim jarayonida alohida modullar asosida o'quv faoliyatini tashkil etilishi o'quvchining ta'lim faoliyatining sub'ekti sifatida mustaqil, rejali bilim o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo'llash o'qituvchidan modulli ta'lim prinsiplarini yaxshi bilishni talab etadi.

Modullikning 1-prinsipi ta'limning konstruktivligi:

a) O'quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o'quvchi oldiga qo'yilgan har bir maqsadga erishish ta'minlangan bo'lsin;

b) O'quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;

c) Ta'limning har xil shakl va turlari integrallashsin.

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi ta'lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta'lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida kursga, sinfga tegishli har xil darajali yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3-prinsip: ta'limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqligi va ularni almashtira olish imkoniyati, o'quv - biluv faoliyatining har bir o'quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai-nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qilish imkoniyati bo'lgan shakli.

4-prinsip: ta'sirlarning tizimliligi: ta'limning har xil metod va usullari, mazmuni o'quv faoliyatining o'zgaruvchanligi asosida bilim o'zlashtirishning qulayligi, maxsus ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

5-prinsip: ta'limning ixchamligi; o'quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning ixcham yo'nalishi.

6-prinsip: ta'limni individuallashtirish: har bir o'quvchining o'zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasi va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab baholash tizimida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faoligini oshirish ta'limni individuallashtirish demakdir.

7-prinsipi: metodik masalahatlarning turli xiligi: modul dasturi axborotlarni oson o'zlashtirish uchun o'qituvchi maslahatidan foydalanishni taqoza etadi.

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog'i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilini beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi.

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib, ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi.

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashil etadi.

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilani ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi.

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi.

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda moduli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv – biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi.

c) Innovatsion texnologiyalar

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tuz olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Innovatsiya (inglizcha innavation) yangilik yaratish,yangilikdir . Demak ananaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas ,balki yangiliklar asosida ta'lim jarayoning ta'sirchanigini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasini aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish

metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi.

(Interaktiv so'zi inglizcha – interaktion ya'ni, inter-aro, o'zaro act-harakat ma'nosini anlatadi). Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Interaktiv usullarning 7 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o'yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

1. Salomlashish (o'qituvchi va o'quvchilar).

2. Kirish so'zi - o'qituvchi o'quvchilarni ta'limning inter aktiv metodikasi, mashgulot mavzusi, shakli va maqsadlari bilan tanishtirish.

3. Qoidalarni ishlab chiqish guruhning samarali ishlashi uchun qoidalarni belgilash yuzasidan o'quvchilarning takliflar bildirishi so'raladi. Shu takliflar asosida ular tomidan qoidalarni ishlab chiqilib qabul qilinadi. Bu qoidalarga rioya qilinish nazoratini faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham oib borishlari ko'zda tutiladi.

4. Tanishuv (muzyorar) - o'quvchilarning darsda o'zaro erkin va faol muboqatlarni ta'minlash maqsadida har turli harakatli mashqlarni tashkil qilish orqali o'tkaziladi. Bu mashqlarni ishtirokchilar orasidagi notanishlik, tortinchoqlik va shu kabi

holatlarni bartaraf qilib, o'zaro iliq munosabatlarni hosil qilishga yo'naltirilgani uchun muzyorar deb nomlanadi.

5. Kutiladigan natijalar - har bir o'quvchi mashg'ulotlar yakunida nimalarni o'rgangani, qanday ishlarni bajara oladigan bo'lganligi haqida ma'lumot berishi lozim. Bunda o'quvchilarining shaxsiy ehtiojlari asosida og'izaki yoki yozma ravishda bildirgan fikrlari ham inobatga olinadi.

6. Kichik guruhlarga ajratish mashg'ulot maqsadiga muvofiq ravishda o'quvchilarini bir nechta kichik guruhlarga ajraladi. Kichik guruhlarga birinchi marta ajratishda o'quvchilar o'z xohishlari mumkin.

7. Kichik guruhlarga ishni tashkil qilish - har bir kichik guruhgaga aniq vazifa, zarur materiallar, vositalar taqdim qilinadi, vazifani bajarish, natijan ma'lum qilish tartibi va ajratilgan vaqt belgilanadi.

8. Taqdimotlar - kichik guruhlar o'zlariga berilgan vazufani bajarganidan keyin, olingan natijalarni ular belgilan vakil tomonidan barcha guruh a'zolari oldida taqdimot qilishdan iborat.

9. Kichik ma'ruzalar - interaktiv mashg'ulot mavzusi bo'yicha o'quvchilarga nazariy ma'lumotlarni yetkazish maqsadida o'qituvchi ma'ruzachi yoki o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

10. Muhokamalar o'tkazish dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish va xulosal chiqarishga yo'naltirilgan interaktiv mashqlardan iborat.

11. Xulosalar va vazifalarni belgilash-mashg'ulot davomidagi xulosalarni jamlash va umumlashtirish hamda o'quvchilar uchun navbatdagi vazifalarni belgilab berishdan iborat.

12. Mashg'ulotni yaunlash – mashg'ulotdan qoniqqanlik darajasini har bir o'quvchi tomonidan baholashni har turli interaktiv shakllarda tashkil etadi. Bu baholash natijalarini keyingi mashg'uotlarni tashkil etishda hisobga oib boriladi.

Interaktiv usullarining barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o'rgatishda uini modellashtirish qismida o'qituvchi o'quvchilarga model namoyish qilish oldidan "Aqliy hujum" metodidan foydalanish mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinkinligi ulardan so'ralib ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o'quvchilar fikri mutloqo tanqid qilinmaydi. Amaliy boshqaruv qismida o'qituvchi "Hamrohingga o'rgat" metodidan foydalanish mumkin. Bu metodni qo'llash quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi.

Darsni o'tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisiga ikkinchi hamkor esa birchisiga modeldagи qismlarni o'rgatadi.

O'qituvchi xoxlovchilarga ta'lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushintiradi keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar. O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismini bir – birlariga

o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni ishlarini nazorat qilib kamchiliklarini bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o'tiladi.

Bu ish usuli modelning boshqa qimslarini ham bajarishda davom etadi. Bu o'quvchilarni bir-biriga va o'ziga talabchan bo'lishga va xatolarini vaqtida bartaraf etishga, ishni tandiqiy baholay bilishga o'rgatadi.

Tushunchlarni tekshirishda o'qituvchi turli interaktiv metodlar (“Bumerang”, “Charxpalak”, “Aql charxi” va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan “Aql charxi” usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.

Bu o'yinda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinci o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchunchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta teminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aytsa o'yindan chiqadi.

Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. Bu o'yinni tashkil etishda maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan: ot so'z turkumiga tegishli so'zlarni ayting.

1-o'quvchi :bulbul

2-o'quvchi : bulbul-qarg'a.

3-o'quvchi : bulbul-qarg'a-mushuk

1-o'quvchi : bulbul-qarg'a-mushuk-ota

2-o'quvchi : bulbul-qarg'a-mushuk-ota-opa

3-o'quvchi : bulbul-qarg'a-mushuk-ota –opa-uka va hokazolar.

O'quvchi so'zlarni ketma -ket ayttishda xatoga yo'l qo'ysa o'yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda "so'z turkumlari bilan qo'llanishi", "otlarning egalik" qo'shimchalar bilan qo'llanishi ,," ot yasovhi qo'shimchalar " va boshqa mavzularni o'rganishda ham bu o'yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o'yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo'l keladi.

"Baxtli tasodif" usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog'lik o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun qog'ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo'yiladi. Faqat bitta kartochkaga "Yutuq "5" baho" deb yoziladi. Shu yutuqli kartochga kimga tushsa "Baxtli tasodif" sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o'quvchilar ham savollarga birdan javoblari asosida baholanadilar. Masalan 4-sinf ona tili darsida "Baxtli tasodif" o'yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin.

Baxtli tasodif-2

Gapning qanday bo'laklari bor?

Ega va kesim gapning qanday bo'laklari?

Baxtli tasodif-24

Gapda so'zlar qanday boglanadi?.

Kesim nimaga bog'lanadi.?

Baxtli tasodif- 3

Gapda ikkinchi darajali bo'laklar nimaga bog'lanadi?

So'roqlar yordamida quyidagi qapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini toping?

Gullar kechasi ko'zini yummaydi.

Baxtli tasodif-4.

Gapda so'zlar nimalar yordamida bog'lanadi?

Quyidagi gapdagi gap bo'laklarini aniqlang:

Men elimning yuragida yashayman .

Baxtli tasodif-5

Yutuq "5" baho

Bunday usullar o'quvchida bilimiga ishtiyoq uyg'otadi.
O'quvchi darslarga puxta hozirlilik ko'rishga intiladi.

3.2 Aqliy salohiyatni aniqlash metodikasi.

Инструкция: Диккат билан куйидаги келтирилган саволларни укиб чикинг ва уларга уз жавобингизни беринг.

Хаелингизга келган биринчи жавобни беринг.

1. Профессор кеч соат 8да будильникни 9-га куйиб, уйкуга етди. У неча соат ухлайди?

2. Эркак киши узининг бевасининг синглисига уйланиши мумкинми?

3. Австралияда хам 8-март борми?

4. Мамеднинг 10-та куи бор эди. 9- дан бошкаси хаммаси улиб колди. Нечта куй колди?

5. Сен Алжирда куниб утадиган Гавана-Москва рейси билан учадиган самолет учувчисисан. Учувчининг еши нечада?

6. Ойлар 30-31 кунлар билан тугайди. Кайси ойда 28 бор?

7. Сен нотаниш хонага кириб колдинг. У ерда бензин ва газ билан енадиган чироклар бор экан. Сен биринчи булиб нимани ёкишинг керак?

8. Москвадан Петербургга ва Петербургдан Москвага бир вактда 2 поезд йулга тушди. Петербургга келаётган поезднинг тезлиги 2-чисиникидан уч марта катта. Учрашган вактда уларнинг хар бири Москвадан канча масофада узокликда булади?

9. Ота ва угил авто халокатга учрашди. Отаси шу жойнинг узидаек халок булди, углини эса касалхонага юборишиди. Операция вактида хирург болани куриб: «Вой худойим-эй, бу менинг углим-ку-деб бакирип юборди. Шундай хам булиши мумкинми?

10. Археологлар эрамиздан аввалги 35-йили чиккан тангани топиб олишиди. Шундай хам булиши мумкинми?

11. Егочни 12 булакка булиш учун уни неча марта арралаш керак?

12. кулларда 10- та бармок бор, 10- та кулда нечта бармок бор?

13. Емгирда куен кандай шох тагида утириши мумкин?

14. Врач (хаким) беморга 30 минут оралиги билан 3-та укол белгилади. Бемор уларнинг хаммасини канча вакт ичидан олиб булади?

15. Бирдан 100 гача булган каторда неча 9 бор?

16. Тунги каравул кундузи улиб колди. Унга нафака туланадими?

17. 7- та шам ениб турган эди. 3-та тасини учиреб куишиди. Нечта шам колди?

18. Икки килоли кадок тош 1 кг ва яримта гишт огирилигита тенг. Битта гиштнинг огирилиги канча?

19. 16 каватли уйда бир лилипут (пакана) одам яшайди. У хар куни эрталаб ишга кетаётіб лифтда пастга тушиб, сунг ишга кетади, ишдан кайтаётгандың 10 каватгача лифтда кутарилиб, у егига пиеда кетади. У нимага шундай килади?

Тест жавоблари.

Саволларга жавоб беришда факатгина нотугри яъни «-» белгили жавобларгина хисоблаб чиқилади ва шунга караб синалувчининг характеристикаси берилади.

Калит

1. 1 соат.
2. Йук (чунки у кишининг узи улиб кетган. Улган одам нафакат хотининг синглисига балки мутлоко уйлана олмайди):
3. Ха (бу кун хамма жойда календарда бор):
4. 9
5. Синалувчининг еши;
6. Хаммасида;
7. Гугурт:
8. Бир хил масофада:
9. Ха (бу унинг онаси):
10. Йук (у вактда тийин булмаган):
11. 11:
12. 50 :
13. Хул шох тагида:
14. 1 соат;
15. 20;
16. Йук;
17. Учта (учта учирилди, колгани ениб булган;)
18. 2 кг.
19. Буйи етмайди.

0-1-гений(даҳо); 2-4 интеллектуал; 5-7 мулоҳазали; 8-10 уртача; 11-12 - акл учқунлари куриниб туради; 13-16 – ахмок одам; 17-19 – алоҳида жойда сакланиши керак булган одам.

Bu metodika 2 ta maktab o'qituvchilarida o'tkazildi. Natijalar tahlili quyidagicha:

Baliqchi tumani 24-maktab o'qituvchilari:

1. Hamidov Begzod matematika o'qituvchisi 19 ta savoldan 16 tasiga javob berdi aqliy salohiyati- intelektual

2. Nazirova Barchinoy tarix o'qituvchisi 19 ta savoldan 13 tasiga javob berdi aqliy salohiyati- mulohazali

Izbosgan tumani 2-maktab o'qituvchilari:

1.Mamajonova Matluba ona-tili o'qituvchisi 19 ta savoldan 14 tasiga javob

berdi aqliy salohiyati- mulohazali

2.Karimova Hilola biologiya o'qituvchisi 19 ta savoldan 11 tasiga javob berdi

aqliy salohiyati- o'rtacha.

0

Psixologik tavsiya.

1.Boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lif sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar qo'yidagi uch paramerli standart o'lchovi orqali aks ettiriladi; o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini vamatn mazmunini anglash hamda fikrini yozma shakl hamda bayon etish malakasi.

2.Bolalarni tevarak – atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish tabiat ta'lim sohasi orqali amalga oshiriladi.

3.Boshlang'ich mакtabda matematika ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga egallagan bilimlarni ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

4.Inson va jamiyat talim sohasi bola shaxsining jismoniy va ma'naviy komolotini taminlashga xizmat qiladigan integral ta'lim sohasiasosida talim tarbiya berish jarayonida bolaning jismonan chiniqtirishni taminlashga xizmat qiladigan eng muhim odatlar urf – odatlar, kiyinish me'yorlari, nafosat va go'zallikni his eta olish, milliy ruhni, inson his tuyg'ularini his eta olish, ko'nikma, olamni borliqni, insoniyat dunyosini va inson faoliyatini ranglar yordamida tasavvur eta olish, milliy ruhni inson his – tuyg'ularini turli musiqi y sadolar yordamida anglash ko'nikmasi, shuningdek, oila va uning iqtisodiy asoslari haqidagi dastlabki ko'nikmalar shakilantiradi va rivojlantiriladi.

Xulosa.

1. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi mustaqillik omili ta'lif sohasini ham tubdan yangilash zaruryatini vujudga keltirdi. Buning uchun yetuk mutaxassislar tayyorlab, ularga ta'lif sohasini samaradorli bo'lishi yo'llarini o'rgatadigan darsliklar qo'llanmalar bilan ta'minlash lozim. Shunday manbalardan biri

M.Ochilovning “O’qituvchi odobi”, “Muallim qalb me’mori”, Munavvarovning “Pedagogika”, M.Maqsadova df A.Jabborovlarning O’qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari” kabi bir qancha asarlari boshlang’ich sinf o’qituvchilarini, ya’ni bo’lajak pedagoglarni axloqiy bilimlar bilan qurollantirishga juda katta yordam beradi.

2. Malakaviy bitiruv ishmiz shu maqsadni ro’yobga chiqarishga qaratilgan bo’lib tuzilishi: Kirish, ikki bob, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

3. Malakaviy bitiruv ishimizda mavzuning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, manbalari metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari ko’rsatilgan.

4. Bitiruv ishimizda “Davlat standartlarida boshlang’ich ta’limninng mazmuniga va o’qituvchiga qo’yiladigan talablar” talqin qilingan. Unda boshlang’ich ta’limning davlat standarti o’quvchilarning egallashlari lozim bo’lgan bilimlarining me’yoriy darajalari belgilab berilgan.

5. Qolaversa bitiruv ishimizga Modulli o’qitish texnologiyasi va interfaol metodlar ya’ni innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars o’tish usullari ham kiritilgan.

6. Ushbu yuqorida ko’rsatilgan adabiyotlarda boshlang’ich sinf o’qituvchisiga qo’yiladigan talablar haqida to’xtalib o’tilgan

7. Bitiruv ishimizda “Boshlang’ich sinf o’qituvchisining ma’naviy-axloqiy sifatlari, yoritib berilgan. Unda bir qancha sifatlar ya’ni, Yaxshilik qilish, o’qituvchilik burchi, o’qituvchilik vijdoni, talabchan vaadolatli bo’lish bilimdonlik, halollik, rostgo’ylik kabi fazilatlar yoritib berilgan.

Interaktiv usullar darsning qiziqarligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lif jarayoning faol sub'ektlariga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonun . Toshkent 1997-y.
2. "Kadrlar tayyorlash miliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining qonuni .Toshkent 1997-y
3. Karimov.I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent 1997-y
4. Karimov .I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent 2008-y.

5. Karimov I.A."Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi ,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar". Toshkent "O'zbekiston" 2009-y
6. Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "Boshlang'ich ta'lim".Toshkent 1997-y
7. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" Toshkent 1992-y
8. "Avesto" dan namunalar "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" .Toshkent 1995-y.
9. Burxoniddin Zarnudjiy "O'quvchiga talim yo'lida qo'lanma ". Ozbekiston pedagogik antologiyasi Toshkent 1995- y
10. Imom Ismoil al—Buxoriy "Hadis " Toshkent 1991y
11. Yoldoshev J , Hasanov ."Avestoda axloqiy ta'limiy qarashlar" Toshkent 1992-y
12. Munavvarov K."Pedagogika "Toshkent "O'qituvchi"
13. Ochilov M. "Mualim qalb me'mori " Toshkent "O'qituvchi" 2001-yil
14. Ochilov M.Ochilova N."O'qituvchi odobi" Toshkent "O'qituvchi"1997-y
15. Usmonov P."Saodatnama" .Toshkent "O'qituvchi"1991-y
16. "Qur'oni Karim" Alavuddin Mansur tarjimasi "Cho'lpon " 1992-y
17. Hamrayev SH."Boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiyaga doir adabiy kechalar o'tkazish" Qarshi "Nasaf" 1999-y
18. Maqsadova M. Jabborov A. " O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari" Qarshi 2009-y

19. G'afforova T . “Boshlang’ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar” Qarshi 2009-y.

Foydalanilgan saytlar

www.google.co.uz

www.rambler.ru

www.ziyonet.uz

www.google.com

www.edu.uz

www.gov.uz

www.uz.ref.uz

www.kitoblar.uz

www.uzswlu.uz

www.philology.ru

www.bestreferat.ru

www.studentex.com

www.polyglot-language.com

www.kasu.uz